

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATUVCHI MASHQLAR

Ahmedova Dilrabo Rahmatovna
Farg'ona shahar 7-o'rta talim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishda mashqlarning ahamiyati va ularni o'rgatish usullari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *mashq, mustaqil fikr, savod o'rgatish, ijodiy mashq.*

Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi - o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgarlar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich ta'limda – o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, adabiy nutq me'yorlariga og'zaki va yozma nutqida rioya qilishni shakllantirish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich ta'lim mazmuni quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Savod o'rgatish va nutq o'stirish.
2. Amaliy fonetika va grammatika, imlo va nutq o'stirish.

Savodga o'rgatish jarayoni ikki davrni: alifbegacha tayyorlov va alifbe davriga ajratiladi. Tayyorgarlik va alifbe davrida ta'lim savodga o'rgatishning tahlil-tarkib tovush usulida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar nutqini yangi so'zlar hisobiga boyitishga alohida e'tibor qaratiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi o'quvchilarda nutqiy faoliyatning asosiy turlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Shuning uchun Ona tili o'quv fani mazmunini nutq tovushlari, yozma nutqda tovushlarning ifodalanishi, so'z turkumlari, ularning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik-semantik guruhlari, imlo qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishiga doir bilimlar tashkil etadi.

Boshlang'ich sinflarda mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash



usullarini o'rgatadi. O'quvchi maktabga kelganda, keng lug'at boyligiga ega bo'lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo'yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining ob'ekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so'zlar bo'lsa). Mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiyisini ajratishga, so'z bilan aniq ifodalashga o'rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o'rgatish bilan bilimni material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o'stirish hisoblanadi.

Mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar bolalarning so'z boyligi va tilining umumiy o'sishida katta ahamiyatga ega bo'lib, lug'at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog'lab olib boriladi. Masalan:

1. Narsalarning mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (ko'ylak, kostyum) va oyoq kiyimlar (botinka, tuffli); uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar «Bu nima?» so'rog'iga javob berishga o'rgatiladi: Bu n i m a? - Avtobus. Avtobus nima? Mashina.

2. Bir turdagi narsalarni sanab ko'rsatish va umumlashtiruvchi bir so'z bilan nomlash. Masalan, stol, stul, shkaf larni bir so'z bilan qanday nomlash mumkin? (Mebel)

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish. Masalan, qalam, pero, chizg'ich, o'chirg'ich, stul ko'rsatiladi, o'quvchilar o'quv qurollarini ajratadilar, stul o'quv quroliga kirmasligini, mebel ekanini aytadilar.

Bunday mashq o'yin tariqasida o'tkazilishi ham mumkin: ma'lum so'zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: qaldirg'och, chumchuq, mushuk, musicha.

4. Predmet nomlari va belgi bildirgan so'zlarni guruhlarga ajratish. Bunda so'zlar choynak, tasha, bolta, piyola, arra, tarelka kabi aralash beriladi. O'quvchilar guruhlab, idishlar nomi: choynak, piyola, ...; ish qurollari nomi: tasha, bolta, ... kabi yozadilar. Narsa belgisini bildirgan so'zlar ham aralash beriladi, bolalar to'rt guruhga (rang, maza, shakl, xususiyat) ajratadilar.

5. Qarama-qarshi qo'yish bilan umumlashtirish: qaldirg'och, chumchuq, bulbul – qushlar, tovuq, xo'roz, kurkalar-chi? (Parrandalar.)

Mazkur mashqlar sermazmun bo'lishi, o'quvchilarning tajribasi bilan bog'lanishi, ularni to'g'ri fikrlashga o'rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishiga xizmat qilishi lozim.

Ijodiy mashqlarda o'quvchilar o'zlari erkin ravishda gap tuzadilar. Boshlang'ich sinflarda ijodiy mashqlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:



1. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, o'quvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar: «Quyoshli kunda», «Bizning uy» yoki «Quyov va tipratikan» kabi.

2. Narsa rasmi yoki syujetli rasm beriladi, o'quvchilar rasm asosida bir yoki bir necha gap tuzadilar.

3. Ikki-uchta «tayanch» so'z beriladi, o'quvchilar shu so'zlarni qatnashtirib gap tuzadilar. Tayanch so'z sifatida bolalarning faol lug'atiga aylantirish zarur bo'lgan so'zlar olinadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. Mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar bolalarning so'z boyligi va tilining umumiy o'sishida katta ahamiyatga ega bo'lib, lug'at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog'lab olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1995, 52.

2. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "Noshir" nashriyoti, 2009, 351.

3. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.

4. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.

5. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.

6. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.

7. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.

8. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Liryics. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 656-664.

9. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – С. 245-249.



10. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.

11. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.

12. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.

13. Oripova, Gulnoza, & Ibrohimova, Gulchiroy (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIKLAR. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 251-255.

14. Oripova, Gulnoza Murodilovna, Akhmadjonova, Okila Abdumalikovna, Kholmatov, Oybek Umarjon Ugli, & Muminova, Tabassum Siddigovna (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 304-309.

15. Oripova, Gulnoza, & Alijanova, Maftuna Azimjon Qizi (2022). ASQAD MUXTORNING "CHINOR" ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 221-226.

16. Oripova, Gulnoza Murodilovna, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2022). O'ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA "YO'QOTILGAN AVLOD" MUAMMOSI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 213-220.

17. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.

18. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.

